

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar tabiiy resurslarni tejashning ahamiyatini va tejamkorlik tabiatni asrashga qanday yordam berishini tushunadi. Ular suv, elektr energiyasi va qog'oz kabi resurslarni qanday tejash mumkinligini o'rganadi.

Mashg'ulot davomiyligi

35-40 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurs 2-sinf Tabiiy fan (science) darsligining II bob 57-sahifasidagi "Qo'lni yuvish" deb nomlangan topshiriq asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

Tabiat bizga suv, havo, o'simliklar, quyosh nuri va boshqa ko'plab resurslarni beradi. Ammo agar biz ularni me'yordan ortiq sarflasak, kelajakda yetishmovchilik bo'lishi mumkin. Shuning uchun resurslarni tejash muhim:

- ☒ Suvni tejash – kranni ortiqcha ochib qo'ymaslik, suvni isrof qilmaslik.
- ☒ Elektrni tejash – kerak bo'lmaganda chiroqlarni o'chirish, energiya tejovchi lampalardan foydalanish.
- ☒ Qog'ozni tejash – ortiqcha qog'oz isrof qilmaslik, eski qog'ozlarni qayta ishlash.

Bu oddiy odatlar tabiatni saqlashga va kelajak avlodlarga toza atrof-muhit qoldirishga yordam beradi.

STEM fanlar bilan integratsiyasi

- ♦ **Tabiiy fanlar** – Tabiiy resurslarning ahamiyati va ularning tiklanish jarayoni.
- ♦ **Matematika** – Tejamkorlik hisob-kitoblari (masalan, suv yoki elektr energiyasini tejash natijalari).
- ♦ **Texnologiya** – Energiya tejovchi texnologiyalar va qayta ishlash jarayonlari.
- ♦ **Informatika** – Elektron hujjatlar yordamida qog'ozni tejash.

Qiziqarli fakt

Quyosh bir sekundda Yerda barcha odamlar bir yilda ishlatadigan energiyadan ko'proq energiya chiqaradi! Agar biz quyosh energiyasidan ko'proq foydalansak, elektrni tejash va tabiatni asrashimiz mumkin. Shuning uchun quyosh panellari barpo etilmoqda va ularni ishlatish tobora ommalashmoqda!